

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.T.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**NOROV G'ULOMJON MIRZOG'OLIB O'G'LI**

**KARYERDA ISHLASH JARAYONLARINI MATEMATIK  
MODELLASHTIRISH: ASOSIY PARAMETRLARNI TAHLIL QILISH,  
OPTIMALLASHTIRISH VA PROGNOZLASH**

**04.00.17 – Konchilikda fizik jarayonlar;  
05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
of technical sciences**

**Norov G‘ulomjon Mirzog‘olib o‘g‘li**

Карьерда ишлаш жарайонларини математик моделлаштириш: асосий  
parametrlarni tahlil qilish, optimallashtirish va prognozlash .....3

**Норов Гуломжон Мирзоголиб угли**

Математическое моделирование процессов эксплуатации карьера:  
анализ, оптимизация и прогнозирование основных параметров .....23

**Norov Gulomjon Mirzogolib ugli**

Mathematical modeling of open-pit operation processes:  
analysis, optimization, and prediction of key parameters .....43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.T.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**NOROV G'ULOMJON MIRZOG'OLIB O'G'LI**

**KARYERDA ISHLASH JARAYONLARINI MATEMATIK  
MODELLASHTIRISH: ASOSIY PARAMETRLARNI TAHLIL QILISH,  
OPTIMALLASHTIRISH VA PROGNOZLASH**

**04.00.17 – Konchilikda fizik jarayonlar;  
05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5059 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tdtu.uz](http://www.tdtu.uz)) va «ZiyoNeb» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:** **Nasirov Utkir Fatidinovich**  
texnika fanlari doktori, professor  
**Xudayberdiyev Oybek Jumaboyevich**  
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Kazakov Aziz Nigmanovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Baxromov Sayfiddin Akbarovich**  
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Geologiya fanlari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.T.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «24» 04 soat 14<sup>30</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. tel./faks: (99871) 207-44-40/207-14-64, e-mail: [tadqiqotchi@tdtu.uz](mailto:tadqiqotchi@tdtu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (97 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 207-44-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «09» 04 kuni tarqatildi.  
(2026-yil «09» 04 dagi \_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).



**J.B. Toshov**  
beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**T.O. Komilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

**S.S. Sayyidqosimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi  
texnika fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda jahon konchilik sanoati rivojlanishining zamonaviy bosqichida foydali qazilma konlarining tobora chuqurroq qatlamlarini o‘zlashtirishni taqozo etmoqda. Bu o‘z navbatida ochiq kon ishlarini olib borishning geomexanik sharoitlarini sezilarli darajada murakkablashtiradi, karyer bortlarining o‘lchamlarini oshiradi, shuningdek, tog‘ jinslari massivining kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini murakkablashtiradi. Chuqur karyerlarni loyihalash va bort qiyaliklarning ustuvorligini pasayish xavfining ortib borishi asosiy cheklovchi omilga aylanib bormoqda. Geologik va texnologik omillarning yuqori darajadagi noaniqlik sharoitida bort qiyaliklarning ustuvorligini baholash va qazib olish parametrlarini optimallashtirish uchun matematik modellashtirish va sonli usullarni qo‘llashning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu yo‘nalishning istiqbolli sohalardan biri karyer bortining qavariq shaklini analitik va sonli usullar, shu jumladan, tabiiy va texnogen omillarni hisobga olgan holda pog‘onalar trayektoriyalarini yanada moslashuvchan va aniq tasvirlash imkonini beruvchi uchinchi darajali lokal interpolatsion splayn  $S_3(x)$  modellar ko‘p qo‘llaniladi. Chunki faqat uchinchi darajali lokal interpolatsion splayn  $S_3(x)$  modellarida nazariy asoslangan ekstremal xossasi mavjud bo‘lganligi uchun amaliy masalalarni modellashtirish jarayonlarida yaqinlashish tezligi yuqoriligi bilan katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham fan va texnikani rivojlanishida, ayniqsa, konchilik sohasida rivojlantirishda uchinchi darajali lokal interpolatsion splayn  $S_3(x)$  modellarni qo‘llanilishi amaliy nuqtai nazardan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dunyoda chuqur karyerlar qiyaliklari va bortlarining ustuvorligini ta‘minlash usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, katta chuqurliklarda konlarni qazib olishda kon-geologik va texnogen omillar murakkablashayotgan sharoitda ustuvorlikni aniq prognozlash, qiyaliklar geometriyasini optimallashtirish va texnogen qulashlar xavfini minimallashtirish, ustuvorlikni aniq prognoz qilish, massiv geometriyasini, tog‘ jinslarining fizik-mexanik xossalarini va tashqi ta‘sirlarni hisobga olish imkonini beruvchi samarali matematik modellarni ishlab chiqish va karyer bortlari parametrlarini ratsional loyihalashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda ochiq usulda qazib olinadigan konlarning o‘ziga xos geologik-texnik sharoitlari uchun matematik modellashtirish usullaridan foydalanish karyerlar qiyaliklari va bortlarining ustuvorligini baholash bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy ishlar bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni<sup>1</sup> konchilik sanoatiga innovatsion texnologiyalar va ilmiy ishlanmalarni joriy etish, yer ostini geologik o‘rganish, undan foydalanish va muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek, joylarda yangi sanoat quvvatlarini yaratishni hisobga olgan holda geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarining mineral-xomashyo bazasini

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-116-son Farmoni.

qayta tiklash bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Shu munosabat bilan karyer bortlari parametrlarini oqilona tanlash uchun massiv geometriyasini, tog' jinslarining fizik-mexanik xususiyatlarini va tashqi yuklar ta'sirini hisobga olish imkonini beradigan uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellar va sonli usullarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2015-yil 4-martdagi PF-4707-son "2015–2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmonlari va 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4124-son "Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublikamizning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishi bo'lgan VII. "Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyoni qayta ishlash)" yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Karyerlar bortlarining ustuvorligini ta'minlash nazariyasi va amaliyotining sezilarli rivojlanishiga matematik modellashtirish, sonli usullar va geomexanik tahlil usullarini qo'llash orqali erishilgan. Biroq, mavjud yondashuvlar murakkablashgan geologik-texnik sharoitlar va konlarni qazib olish chuqurligining oshishini hisobga olgan holda yanada moslashish va takomillashtirishni talab qiladi, bu esa bort qiyaliklar shaklini optimallashtirish va konchilik ishlari xavfsizligini oshirishning yangi usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda e'lon qilingan ilmiy adabiyotlarda bort qiyaliklarning ustuvorligini baholashning turli usullari, jumladan, klassik analitik yondashuvlar, chekli elementli modellashtirish, prognozli tahlil usullari, ayniqsa, amaliy nuqtai nazardan yuqori natijalarga erishayotgan uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellar va zamonaviy raqamli texnologiyalar qo'llanilmoqda. Shunday bo'lsa-da, bu usullarning ko'pchiligi murakkab geologik sharoitlarda va kon massivining o'zgaruvchan tuzilishiga nisbatan qo'llanilganda cheklovlarga duch kelmoqda. Bu esa ularning amaliy samaradorligiga putur yetkazmoqda.

Real geometrik va fizik parametrlarni hisobga olgan holda bort qiyaliklarning yanada aniq va silliq trayektoriyalarini yaratish imkonini beruvchi ayniqsa amaliy nuqtai nazardan dolzarb hisoblangan uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalish maksimal ustuvorlikni ta'minlaydigan va shu bilan birga kon-qurilish resurslarini tejashga yordam beradigan karyer bortining optimal shakllarini yaratish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Bundan tashqari, tadqiqotlarning hozirgi holati tog' jinslarining zichligi va fizik xususiyatlarining bir xil emasligini, shuningdek, potensial sirpanish yuzalarining ta'sirini hisobga olgan holda, tog' jinslari massivining og'irlik markazini aniqlash usullarini takomillashtirish zarurligini

ko'rsatadi. Og'irlik markazi holatini aniq baholash ustuvorlik zaxirasi koeffitsiyentini hisoblash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan deformatsiyalar va qulashlarni prognoz qilish uchun asosiy manbaa hisoblanadi.

Shuningdek, ustuvorlikni tahlil qilishda matematik modellashtirish, eksperimental tadqiqotlar va statistik korrelyatsion tahlildan foydalanishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv muhim jihatlardan hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat hisoblashlarning aniqligini oshirish, balki muhandislik yechimlarini har bir konning o'ziga xos geologik-texnik sharoitlariga moslashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, nazariya va amaliyotdagi sezilarli yutuqlarga qaramay, chuqur karyerlar bortlarining barqarorligini ta'minlash muammosi dolzarbligicha qolmoqda va keyingi ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni talab qiladi. Chuqur karyerlarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan yangi usullar va modellarni yaratish alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu konchilik ishlarining xavfsizligini va mineral-xomashyo bazasidan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISIS"ning Olmaliq shahridagi filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AL-21091429 – "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ karyerlarida nogabaritlar chiqishini kamaytirishni ta'minlovchi portlatish ishlarining samarali texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** karyer bortining qavariq shaklini splayn funksiyalarga asoslangan matematik modellashtirish negizida qurish usullarini ishlab chiqish va karyer borti ustuvorligini kon massivi og'irlik markazi va ustuvorlik zaxira koeffitsiyenti tahlili asosida prognozlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish chuqurligini oshirishning salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beruvchi matematik yechimlarni tahlil qilish;

uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellarni qurish va ushbu model asosida karyer bortining qavariq shaklini kubik splayn negizida yaratish usulini ishlab chiqish;

foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishda tog' jinslari massivining og'irlik markazi koordinatalarini aniqlash jarayonini matematik modellashtirish;

karyer bortlari ustuvorligini splayn funksiya asosidagi matematik modellashtirish negizida prognozlash usulini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish jarayonida geologik-texnik omillar ta'siriga uchraydigan kon massivi va karyer bortlarining qiyaliklari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** karyer bortlari qiyaliklarining ustuvorligini va konchilik ishlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan matematik usullar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, sonli tahlil va geomexanik hisoblash usullari, jumladan, kubik splaynlarni qo‘llash, binar bo‘lish usuli, korrelyatsion tahlil, shuningdek, ishlab chiqilgan eksperimental hisoblashlar va natijalarning qiyosiy tahlilidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellarni qurish va ushbu model asosida murakkab geologik va gidrogeologik sharoitlar uchun konchilik ishlarini bexatar olib borish, karyer borti qiyaliklarining optimal geometriyasini ta‘minlashga xizmat qiladigan bort qavariq trayektoriyasini qurish ishlab chiqilgan;

kubik splayn negizida qurilgan karyer borti trayektoriyasini va siljish chizig‘i bilan chegaralangan tog‘ jinslari massivi og‘irlik markazining koordinatalarini aniqlash trayektoriyasining matematik modeli asosida qiyalik ustuvorligi koeffitsiyentini va ustuvorlikni muhandislik baholash aniqligini oshirilishi asoslangan;

karyer borti trayektoriyasi qavariqligi va ustuvorlik zaxirasi koeffitsiyenti orasidagi o‘zaro korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligi to‘g‘risidagi teorema isbotlangan;

muayyan kon-geologik sharoitlar uchun karyer bortining xilma-xil geometrik konfiguratsiyasiga mos bo‘lgan ustuvorlik zaxirasi koeffitsiyentlarini baholashning kompleks usullari ishlab chiqilgan va bort qiyaliklarining optimal parametrlarini aniqlash va loyihalash amaliyotida qo‘llash algoritmi va dasturlar majmui ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

murakkab geologik va gidrogeologik sharoitlar uchun karyer bortining qavariq trayektoriyasi kubik splaynlardan foydalanib qurilgan va u konchilik ishlarini bexatar olib borish, karyer borti qiyaliklarining optimal geometriyasini ta‘minlashi isbotlangan;

uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellarni qurish va ushbu model asosida karyer bortining qavariq shaklini yaratish usulini ishlab chiqish;

karyer maydonining muayyan chegaralaridagi tog‘ jinslari massivi markazining koordinatalarini aniqlash jarayonini matematik model asosida bort qiyaligi ustuvorligi baholangan;

karyer borti trayektoriyasining qavariqlik ko‘rsatkichi bilan bort ustuvorligi zaxirasi koeffitsiyenti orasidagi bog‘liqligi to‘g‘risidagi teorema isbotlangan va mazkur korrelyatsion modeldan amaliyotda samarali foydalanish tavsiya etilgan;

karyer bortining mavjud geometrik konfiguratsiyasiga mos bo‘lgan ustuvorlik zaxirasi koeffitsiyentlarini baholash uchun muayyan kon-geologik sharoitlarda ishlab chiqilgan v abort qiyaliklarining optimal parametrlari bo‘yicha loyihaviy yechimlar qabul qilish takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘tkazilgan matematik hisoblashlar, uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellar, sonli modellashtirish va qiyosiy tahlillar orqali tasdiqlangan bo‘lib, ular olingan natijalarni konchilik sanoatida xavfsizlikning nazariy kutilmalari va amaliy talablariga muvofiqligini ko‘rsatadi, splayn modelni karyerlarning real geologik-

texnik sharoitlarida tekshirish esa taklif etilgan usullarning yuqori darajadagi aniqligi va ishonchliligini ko'rsatadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati matematik modellar va sonli usullar, jumladan, ushbu dissertatsiya ishida qurilgan uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modelni qo'llash negizida kon massivi massalari markazini aniqlash, karyer bortlari qiyaliklarining ustuvorligini prognozlashni takomillashtirish, murakkab geologik-texnik sharoitlarga loyihalash yechimlarini moslashtirish, burg'ilash va portlatish ishlari parametrlarini optimallashtirish, shuningdek, konchilik ishlarining xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishni ta'minlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati karyer borti qiyaliklarining ustuvorligini oshirish, burg'ilash va portlatish ishlarining parametrlarini optimallashtirish va konni ochish va qazib olish ishlari samaradorligini ta'minlashga qaratilgan uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellar qo'llash negizida karyer bortining qavariq trayektoriyasini loyihalash va kon massivi massalari markazini matematik aniqlashning samarali usuli ishlab chiqilganligi va uni amaliyotda qo'llaganlik bilan tavsiflanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Karyer borti qiyaliklari ustuvorligining matematik modellarini ishlab chiqish, bort geometriyasini optimallashtirish va konchilik ishlari xavfsizligini oshirish bo'yicha samarali muhandislik yechimlarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

Kubik splaynlarni qo'llagan holda karyer bortining qavariq trayektoriyasini qurish usuli "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning "Yoshlik-1" karyerida joriy etilgan ("Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning 16.10.2025-yildagi №SL-875 son ma'lumotnomasi). Natijada bort geometriyasini optimallashtirish va xavfsiz qiyaliklar maydonini qisqartirish hisobiga foydali qazilmalarni qazib olish hajmini 8% ga oshirish, qiyaliklarni mustahkamlashga sarflanadigan xarajatlarni 12% ga kamaytirish imkonini bergan;

Kon massivi massasi markazining koordinatalarini aniqlash va qiyaliklarning ustuvorlik zaxirasi koeffitsiyentini hisoblash usuli "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning "Yoshlik-1" karyerida joriy etilgan ("Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning 16.10.2025-yildagi №SL-875 son ma'lumotnomasi). Natijada, qiyaliklar ustuvorligini baholash aniqligini 18% ga oshirish, avariya xavfini 20% ga kamaytirish, shuningdek, loyiha yechimlarini optimallashtirish qiyaliklarni mustahkamlash xarajatlarini 10% ga kamaytirish imkonini bergan va konchilik ishlari unumdorligini oshirish va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo'yicha tavsiyalar, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish chuqurligini oshirishning salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beruvchi matematik usullar tahlili”** deb nomlangan **birinchi bobida** matematik modellashtirish va konchilik ishlari masalalarini yechish usullarining umumiy tahlili keltirilgan. Modellashtirishning asosiy usullari va ularni konchilik ishlarining turli bosqichlarida qo'llash samaradorligi o'rganilgan. Asosiy e'tibor ochiq kon ishlarini olib borish xavfsizligiga, karyer bortlari va pog'onalarining ustuvorligiga, BPI (burg'ilash-portlatish ishlari)ni olib borish va rudalarni tashishga qaratilgan.

Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishda matematik modellashtirish va sonli usullarni qo'llashning maqsadga muvofiqligi ko'rib chiqilgan. Ochiq kon ishlari chuqurligining oshishi kon-geologik sharoitlarning murakkablashishi, tashish masofasining oshishi va karyer bortlari qiyaliklarining barqarorligini saqlash bilan bog'liq qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Loyiha yechimlarini optimallashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ushbu omillarning salbiy oqibatlarini minimallashtirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan karyer rivojlanishining turli ssenariylarini prognozlash va tahlil qilish imkonini beruvchi splayn metodlar asosida matematik modellashtirish, sonli usullar va kompleks dasturlarni qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi.

Splayn metodlar asosida qurilgan matematik modellar karyer parametrlarini prognoz qilishda muhim rol o'ynaydi. Sonli modellashtirish metodlari orqali va chekli elementlardan foydalangan holda karyer bortlari qiyaliklarining turg'unligini tahlil qilish, chiziqli dasturlash algoritmlari yordamida konchilik sohasida ishlatiladigan maxsus transportlarning harakatlanish yo'nalishlaridagi sarf-xarajatlarni minimallashtirish masalalarini optimallashtirish, ommaviy xizmat ko'rsatish tizimlari asosida transport oqimlari parametrlarini hisoblash, karyer chuqurligiga qarab kon-geologik sharoitlarning o'zgarishini modellashtirish va boshqa vazifalarni yechish imkonini beradi.

Optimallashtirish mezonlari tenglamasi:

$$F_{\text{OPT}} = \min \sum_{i=1}^n (C_{\text{TP}} + C_{\text{ЭК}} + C_{\text{УСТ}} + C_{\text{ЭН}}) \quad (1)$$

bu yerda  $i$  – pog‘onalar soni ( $i = \overline{1, n}$ ),  $C_{\text{Tp}}$  – rudani tashish xarajatlari,  $C_{\text{ЭКС}}$  – qazish xarajatlari,  $C_{\text{yCT}}$  – qiyaliklarning barqarorligini ta’minlash xarajatlari,  $C_{\text{ЭН}}$  – uskunalarni energiya bilan ta’minlash xarajatlari.

Qiyaliklar ustuvorlik koeffitsiyenti quyidagi

$$F = \frac{R}{Q}, \quad (2)$$

formula bilan aniqlanadi. Bu yerda  $R$  – ushlab turuvchi kuch,  $Q$  – buzuvchi kuch.

Konlarning genetik sinfiga va massivning holatiga qarab  $\alpha_y$  pog‘onalari va  $\alpha_\sigma$  bortlari qiyaliklarining chegaraviy ustuvor burchaklari aniqlangan:

1. I sinf konlari uchun:

$$\alpha_y = \begin{cases} 45^\circ - 50^\circ, & \text{o'rta blokli jinslar;} \\ 50^\circ - 55^\circ, & \text{yirik blokli jinslar;} \\ 60^\circ - 65^\circ, & \text{yopiq darzli yirik blokli jinslar;} \end{cases}$$

$$\alpha_\sigma = \begin{cases} 40^\circ, & \text{o'rta blokli jinslar;} \\ 46^\circ, & \text{yirik blokli jinslar;} \\ 55^\circ, & \text{yopiq darzli yirik blokli jinslar.} \end{cases}$$

2. II sinf konlari uchun:

$$\alpha_y = \begin{cases} 45^\circ - 55^\circ, & \text{ost qanot;} \\ 50^\circ - 70^\circ, & \text{ust qanot, massiv holatiga bog'liq holda;} \end{cases}$$

$$\alpha_\sigma = \begin{cases} 40^\circ - 45^\circ, & \text{ost qanot;} \\ 50^\circ - 60^\circ, & \text{ust qanot.} \end{cases}$$

Portlatish ishlari natijasida pog‘onalarning deformatsiyasi massivning buzilish tenglamasi asosida modellashtirilgan:

$$\tau_f = c + \sigma_n \operatorname{tg} \varphi, \quad (3)$$

bu yerda  $\tau_f$  – yemirilishning chegaraviy urinma kuchlanishi,  $c$  – ilashish koeffitsiyenti,  $\sigma_n$  – normal kuchlanish,  $\varphi$  – ichki ishqalanish burchagi.

Portlashlar natijasida yuzaga keladigan to‘lqin jarayonlarini hisobga olish uchun muhitda elastik to‘lqinlarning tarqalish tenglamasi keltirilgan:

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = v^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, \quad (4)$$

bu yerda  $u$  – massiv zarrachalarining siljishi,  $v$  – to‘lqinning tarqalish tezligi,  $x$  – fazoviy koordinata,  $t$  – vaqt.

Massivdagi kuchlanishlarning o‘zaro ta’sirini hisobga oluvchi kuchlanish tenzori:

$$\sigma_{ij} = \lambda \delta_{ij} \varepsilon_{kk} + 2\mu \varepsilon_{ij}, \quad (5)$$

bu yerda  $\sigma_{ij}$  – kuchlanish tenzorining komponentalari,  $\lambda, \mu$  – Lamé koeffitsiyentlari,  $\delta_{ij}$  – Kroneker simvoli,  $\varepsilon_{kk}, \varepsilon_{ij}$  – tenzor komponentalari.

Bortning oxirgi texnologik jihatdan erishiladigan chegarasidagi qiyalik burchagi  $\alpha_\delta^t$  ni aniqlash formulasi:

$$\operatorname{tg} \alpha_\delta^t = \frac{H_\sigma}{H_\sigma \cot \alpha_y + \frac{H_\sigma}{3}(n-1) + H_\sigma B}, \quad (6)$$

bu yerda  $H_\sigma$  – bortning umumiy balandligi,  $\alpha_y$  – pog‘onaning qiyalik burchagi,

$B$  – transport bermasining kengligi,  $n$  – pog‘onalar soni  $n = \frac{H_\sigma}{H_y}$ .

Ochiq usulda qazib olish sharoitlari uchun konning matematik modelini qurish konchilik ishlarini optimallashtirishning asosiy bosqichidir. Ushbu jarayon loyihalananayotgan karyerning chuqurligi, bortlarning qiyalik burchagi, tog' jinslari massivining tuzilishi va BPI intensivligi kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda modelning dastlabki geomexanik, geologik va texnologik parametrlarini tanlashni o'z ichiga oladi.

Uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellarda konchilik ishlarini rejalashtirishga moslashtirish uchun quyidagi jihatlar hisobga olingan:

1. Massivning geomexanik parametrlari – tog' jinslarining mustahkamlik xususiyatlari, ilashish va ichki ishqalanish koeffitsiyentlari, deformatsiyalanuvchanlik va kuchlanish-deformatsiyalanish ko'rsatkichlari;

2. Geologik sharoitlar – tog' jinslari tarkibining o'zgaruvchanligi, darzlanganlik darajasi, tektonik buzilishlar va kuchsizlanish zonalarining mavjudligi;

3. Hidrogeologik omillar – yer osti suvlari sathi, tog' jinslarining filtratsiya xususiyatlari va suvga to'yinganlikning qiyaliklar turg'unligiga ta'siri;

4. Texnologik parametrlar – konni qazib olish sxemasi, qazish ishlari olib borilayotgan pog'onalarning joylashuvi, tashish yo'nalishlari va burg'ilash-portlatish ishlari parametrlari.

Dissertatsiyaning **“Kubik splaynlar negizida karyer bortining qavariq shaklini ishlab chiqish”** deb nomlangan **ikkinchi bobi** uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellardan foydalangan holda karyer bortining qavariq shaklini qurish usulini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Ochiq kon ishlarini olib borish jarayonida karyer bortlarining ustuvorligini ta'minlash kon lahimlarining xavfsizligiga, ochish va qazib olish ishlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Karyer bortining optimal trayektoriyasini shakllantirish usullaridan biri pog'onalar va qiyaliklarning silliq egri chiziqli geometriyasini qurishni ta'minlaydigan uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellardan foydalanishdir. Buning uchun uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellar tadqiq qilingan va keltirib chiqarilgan. Karyer bortining trayektoriyasini loyihalashda bortning qiyalik burchagiga alohida e'tibor beriladi, chunki bu parametr qiyaliklarning turg'unligiga, ortiqcha qazib olinadigan tog' jinslari hajmiga va kon ishlarini olib borish xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Karyer bortining optimal shaklini aniqlash uchun pog'onalar va qiyaliklar relefining tabiiy shakllarini approksimatsiyalovchi silliq egri chiziqni qurish imkonini beruvchi uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn modellar bilan interpolyatsiyalash usuli qo'llanilgan. Ushbu usul konchilikda karyerning qazish-transport sxemalari relyefini geometrik modellashtirishda, shuningdek, tog' jinslari massivlarining barqarorligini prognozlashda keng qo'llaniladi.

Amaliyotda juda ko'p hollarda (o'zi va uning hech bo'lmaganda birinchi tartibli hosilasining uzluksizligi talab qilinadigan) uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn  $S_3(x)$  modellar ko'p qo'llaniladi. Chunki faqat uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn  $S_3(x)$  modellarda nazariy asoslangan ekstremal xossasi ( $f(x)$ ) funksiyani ikkinchi tartibli hosilasining kvadratidan olingan integralga faqat uchinchi darajali lokal interpolyatsion splayn funksiya

minimum qiymat beradi) mavjud bo'lganligi uchun amaliy masalalar modellashtirish jarayonlarida yaqinlashish tezligi yuqoriligi bilan kata ahamiyatga ega.

Bunda  $m_i = S_3(x_i)$  kattalik splaynning  $x_i$  nuqtadagi qiymatiga deyiladi. Bu yerda  $m_i$  quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$m_i = \frac{f_{i+1} - f_{i-1}}{2h}, i = 1, 2, \dots, N - 1, \quad (7)$$

$$m_0 = \frac{4f_1 - f_2 - 3f_0}{2h}, m_N = \frac{3f_N - f_{N-2} - 3f_{N-1}}{2h}. \quad (8)$$

Ushbu formulalar  $h = \frac{b-a}{N}$  qadam asosida olingan ikkinchi tartibli aniqlikdagi sonli differensiallash formulalaridir.

Uchinchi darajali lokal interpolatsion splayn  $S_{3i}(x)$  modelning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'lsin:

$$S_{3i}(x) = a_i + b_i(x - x_i) + c_i(x - x_i)^2 + d_i(x - x_i)^3. \quad (9)$$

Uchinchi darajali lokal interpolatsion splayn  $S_3(x)$  modelni qurishda karyer bortining qavariq shaklini aniqlash uchun mutaxassislar tomonidan olingan eksperimental ma'lumotlar (1-jadval)dan foydalanamiz.

1-jadval

$i$	0	1	2	3	4
$x$	0	4	8	12	16
$y$	0	9	14	18	20

$y = f(x)$  funksiyasining  $x$  o'zgaruvchiga bog'liqligi bo'yicha olingan tajriba natijalari ( $i$  – nuqtalar tartib raqami,  $x$  – o'zgaruvchi qiymatlari,  $y$  – funksiya qiymatlari).

$$\left\{ \begin{array}{l} a_0 = 0, a_1 = 9, a_2 = 14, \\ a_3 = 18, c_0 = 0, 4b_0 + 64d_0 = 9 \\ 4b_1 + 16c_1 + 64d_1 = 5 \\ b_2 + 4c_2 + 16d_2 = 1 \\ 2b_3 + 8c_3 + 32d_3 = 1 \\ b_0 - b_1 + 48d_0 = 0 \\ -c_1 + 12d_0 = 0 \\ b_1 - b_2 + 8c_1 + 48d_1 = 0 \\ c_1 - c_2 + 12d_1 = 0 \\ b_2 - b_3 + 8c_2 + 48d_2 = 0 \\ c_2 - c_3 + 12d_2 = 0 \\ c_3 + 12d_3 = 0 \end{array} \right. \quad (10)$$

Karyer bortining qavariq shaklini aniqlash uchun mutaxassislar tomonidan olingan eksperimental ma'lumotlardan (1-jadval) foydalanib splayn modelning interpolatsiya va chegaraviy shartlari asosida quyidagi tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

Qisqaroq bo'lishi uchun bu sistemani matritsa ko'rinishiga keltiriladi:  $AX = B$ , bunda  $A$  – noma'lumlar oldidagi koeffitsiyentlardan tuzilgan matritsa,  $X$  – noma'lumlar ustun-matritsasi,  $B$  – ozod sonlar ustun-matritsasi.  $AX = B$  tenglama  $X = B \cdot A^{-1}$  yechimga ega bo'lgani uchun, Excel dasturidan foydalanib


$B \cdot A^{-1}$  ko'paytma topiladi. Keyin noma'lum  $a_i, b_i, c_i, d_i$  ( $i = \overline{0,3}$ ) topilib, izlanayotgan splayn funksiya koeffitsiyentlarining qiymatlari 2-jadvalda berilgan:

2-jadval

$i$	$a_i$	$b_i$	$c_i$	$d_i$
0	0	2,508929	0	-0,01618
1	9	1,732143	-0,1942	0,018415
2	14	1,0625	0,026786	-0,0106
3	18	0,767857	-0,10045	0,008371

Mos lokal kubik splaynlar uchun noma'lum koeffitsiyentlarning qiymatlari.

Barcha noma'lum koeffitsiyentlar aniqlangandan keyin ularni kubik splayn vositasida karyer bortining trayektoriyasining grafik ko'rinishi hosil qilindi (1-rasm).



1-rasm. Kubik splayn vositasida tuzilgan karyer borti trayektoriyasi

So'ngra, (7) va (8) formulalardan foydalanib, mos nuqtalardagi qiyalik burchak qiymatlarini topamiz, bu aslida  $y'_i = S'_i(x_i)$  funksiya uchun qiyalik burchagini aniqlash qiymatlari bo'lib, bu yerda  $i = \overline{0;3}$ :

$$tg\alpha_0 = m_0 = \frac{4y_1 - y_2 - 3y_0}{2h} = \frac{11}{4}, tg\alpha_1 = m_1 = \frac{y_2 - y_0}{2h} = \frac{7}{4},$$

$$tg\alpha_2 = m_2 = \frac{y_3 - y_1}{2h} = \frac{9}{8}, tg\alpha_3 = m_3 = \frac{y_4 - y_2}{2h} = \frac{3}{4}.$$

Og'ish burchagini graduslardagi qiymatlarini aniqlash uchun arktangens funksiyasidan foydalanamiz. Unda

$$\alpha_0 = 70^\circ, \alpha_1 = 60^\circ, \alpha_2 = 48^\circ \text{ va } \alpha_3 = 37^\circ.$$

Bortning optimal tanlangan qiyalik burchaklari bort pastki qismidan uning yuqori qismiga qarab qiyalikni asta-sekin kamaytirish orqali uning ustuvorligini ta'minlaydi.

Kubik splayn usulidan foydalanib karyer borti shaklini modellashtirishga yo'naltirilgan eksperimental hisoblashlar o'tkazilib, tadqiqot davomida quyidagilar aniqlangan:

- bort egri chizikli trayektoriyasining qiyalik burchaklari (graduslarda);
- har bir nazorat nuqtasidagi qiyalik burchaklarining tangenslari;

– bort balandligiga qarab pog‘onalar qiyalik burchaklarining o‘zgarish dinamikasini aks ettiruvchi ma’lumotlarning grafik bog‘liqligi.

Qiyaliklarning yuqori ustuvorligini, ochish ishlari hajmini kamaytirishni va konchilik ishlarini olib borish xavfsizligini oshirishni ta’minlaydigan karyer borti trayektoriyasining optimal qavariq shaklini ishlab chiqish vazifasi quyidagicha yechilgan.

Keyingi tajribalar uchun faqat 1.3 § dagidek o‘xshash hisoblashlar asosida olingan yakuniy natijalar keltirilgan. Bunday yondashuv hisoblash amaliyotlarini takrorlamasdan ma’lumotlarni tahlil qilish, natijalarni taqqoslash va karyer borti trayektoriyasining optimal shaklini asoslashga e’tibor qaratish imkonini beradi.


Agar tajribalar natijasida  $y = f(x)$  funksiyasining  $x$  o‘zgaruvchisiga bog‘liqligi jadval ko‘rinishida olingan bo‘lsa (3-jadval), karyer bortining trayektoriyasi quyidagicha aniqlandi.

3-jadval

$i$	0	1	2	3	4
$x$	0	4	8	12	16
$y$	0	10	16	21	24

$y = f(x)$  funksiyaning  $x$  o‘zgaruvchisiga bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari hisoblanadi (bunda  $i$  – nuqtalar tartib raqami,  $x$  – o‘zgaruvchi qiymatlari,  $y$  – funksiya qiymatlari).

Birinchi satr – tartib raqamlari, ikkinchi satr – qiyalik burchagi tangensining qiymatlari, uchinchi satr – burchaklarning gradus o‘lchovlaridagi qiymatlari bo‘lib 4-jadvalda keltirilgan.



2-rasm. Kubik splayn vositasida aniqlangan karyer borti trayektoriyasi

4-jadval

$i$	0	1	2	3
$tg\alpha_i = m_i$	3	2	1,3	1
$\alpha_i$	$71,57^\circ$	$63,44^\circ$	$53,97^\circ$	$45^\circ$

Aniqlangan karyer borti trayektoriyasini chizamiz:

Xuddi shu tarzda keying oraliqlarda karyer borti trayektoriyasini aniqlashda 2-, 3-, 4- va 5- tajriba oraliqlarida olingan natijalari dissertatsiyada keltirilgan.

Karyer bortining ustuvorligini ta'minlash va konchilik ishlarini olib borish xavfsizligini oshirish maqsadida uning qavariq shaklini aniqlash usullarini qiyosiy tahlil qilish masalasi dolzarb hisoblanadi. Ushbu masala ustuvorlikning geometrik va fizik modeli talablariga javob beradigan karyer borti trayektoriyasini ifodalash imkonni beradigan kubik splaynlar usulidir.

Quyida karyer (pog'ona) bortining kengligi va balandligi turli xususiy kesmalarda kubik splayn funksiyasi (9) ko'rinishida aniqlangan.

1. Kengligi 16 m va balandligi 24 m bo'lgan karyer (pog'ona) borti funksional bog'liqlik natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Kubik splayn funksiyalar quyidagi ko'rinishda hosil bo'ladi:

$$\begin{aligned} y_0 &= S_0 = -0,02x^3 + 2,76x; \\ y_1 &= S_1 = 0,02x^3 - 0,42x^2 + 4,75x - 2,21; \\ y_2 &= S_2 = -0,01x^3 + 0,28x^2 - 0,29x + 12,64; \\ y_3 &= S_3 = 0,01x^3 - 0,4x^2 - 7,04x - 20,14. \end{aligned}$$

Xuddi shu tarzda 2-5-bortlar uchun ham natijalar olingan.

Karyer borti kengligi va balandligi turlicha bo'lgan beshta misolda olingan natijalarni taqqoslaganda, kenglik va balandlikka qarab, karyer borti trayektoriyasi tegishlicha qavariq bo'lishi mumkin. 5-jadvalda tegishli nuqtalardagi qiyalik burchagi tangensining qiymatlari, 6-jadvalda esa shu nuqtalardagi qiyalik burchagining graduslardagi qiymatlari keltirilgan.

5-jadval

Kesmalar $tg\alpha_i$	[16; 20]	[16; 24]	[16; 28]	[20; 24]	[20; 28]
$tg\alpha_0$	2,75	3	2,875	2,8	2,6
$tg\alpha_1$	1,75	2	2,125	1,6	1,8
$tg\alpha_2$	1,125	1,3	1,625	1	1,3
$tg\alpha_3$	0,75	1	1,375	0,8	1

6-jadval

Kesmalar $\alpha_i$	[16; 20]	[16; 24]	[16; 28]	[20; 24]	[20; 28]
$\alpha_0$	70°	71,57°	70,82°	70,35°	69°
$\alpha_1$	60,26°	63,44°	64,8°	58°	61°
$\alpha_2$	48,36°	53,97°	58,39°	45°	52,44°
$\alpha_3$	37°	45°	53,95°	38,66°	45°

Ekspirimental ma'lumotlar asosida umumiy holatda berilgan eng kichik kvadratlar modeli

$\delta(a_0, a_1, a_2, \dots, a_n) = \sum_{i=1}^n [a_0 + a_1x_i + a_2x_i^2 + \dots + a_nx_i^n - y_i]^2 \rightarrow \min$  (11)  
yordamida karyer bortining qavariq shaklini aniqlash bo'yicha korrelyatsion tahlil qilinishida foydalanildi. Xususan,  $y(x) = a_0 + a_1x + a_2x^2$ ,  $a_0, a_1, a_2 - ?$  kvadrat

funksiya bilan yaqinlashtirishning korrelyatsion tahlili negizida karyer borti qavariq shakllari baholangan.

Dissertatsiyaning **“Karyerni ekpluatatsiya qilishda tog‘ jinslari massivining og‘irlik markazi koordinatalarini aniqlashni matematik modellashtirish”** deb nomlangan **uchinchi bobida** karyerdagi kon massivining og‘irlik markazi koordinatalarini matematik modellashtirish negizida aniqlash ishlab chiqilgan. Ustuvorlikni ta‘minlash uchun massivning potensial ustuvor bo‘lmaydigan qismida massalarning taqsimlanishi har tomonlama tahlil qilingan. Shu munosabat bilan, karyer bortining geometriyasi va mumkin bo‘lgan sirpanish tekisligi bilan chegaralangan kon massivi massalari markazining koordinatalarini aniqlash masalasi alohida o‘rin tutadi. Massalar markazining holatini bilish ta‘sir etuvchi kuchlarni modellashtirish, muvozanatni tahlil qilish va qiyaliklar ustuvorligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan ustuvorlik zaxirasi koeffitsiyentini hisoblash imkonini beradi. Massalar markazining koordinatalarini aniqlash va massivni moddiy nuqta ko‘rinishida tasvirlash karyer borti yoki pog‘ona qiyaliklarining ustuvorligini tahlil qilish uchun mexanika usullaridan foydalanilgan. Ushbu tadqiqotda kon massivini moddiy nuqtalar tizimi sifatida modellashtirish taklif etilgan, ularning bo‘linishi har bir tarkibiy qismning massa markazining koordinatalarini aniqlash imkonini beradi. Ma‘lum bo‘lgan vaznli yig‘indi formulasini qo‘llab, butun massiv massa markazining koordinatalari topiladi. Bunda tog‘ jinslarining zichligi o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkinligi hisobga olinadi, ya‘ni  $\gamma = \gamma(x, y)$  zichlik ko‘rib chiqilayotgan soha chegarasida o‘zgarishi mumkin. Hisoblashlar karyer borti va mumkin bo‘lgan sirpanish tekisligi bilan chegaralangan kontur chegarasida amalga oshiriladi, bu esa kubik splayn metodi yordamida tiklangan. Zichligi o‘zgaruvchan  $\gamma = \gamma(x, y)$  bo‘lgan yassi shaklning massalar markazi koordinatalarini hisoblashda tutash muhitlar mexanikasi qoidalari va integral hisoblash usullaridan foydalanilgan. Xususan,  $D$  soha massa markazining koordinatalari quyidagicha aniqlanadi:

